O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTINING TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA AHOLI DAROMADLARINING TAQSIMOT TAHLILI.....	1272
Bayxonov Baxodirjon Tursunbayevich	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING XORIY TAJRIBASI.....	1277
Raxmatova Shaxnoza Rustamovna, Ochilova Dilnoza Ismoil qizi	
ФОРМИРОВАНИЯ УСТОЙЧИВОЙ ЗАНЯТОСТИ В ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ	1283
Б.С. Разакова	
ZAMONAVIY TURISTIK KLASSTERLARNI BOSHQARISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1289
Azim Pulatov	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR BANDLIGINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI VA DAVLAT SIYOSATINING SAMARADORLIGI	1296
Qodirov Baxodirjon Shuhratovich	



YASHIL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SANOAT KORXONALARINING ISHLAB CHIQUARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING AHAMIYATI	1302
Ergashev Sanjarbek Sobirjon o'g'li	
ONLAYN TA'LIM PLATFORMALARI INTERAKTIV CHATBOTLARI SAMARADORLIGINI KOMPLEKS BAHOLASH	1306
Zaripova Mukaddas Djumayozovna, Yusupova Asila Xidirqul qizi	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHNING TAKOMILLASHTIRILGAN USLUBIYOTI	1313
Abdullayeva Sevaraxon Xasanovna	
ZARAFSHON MINTAQASI HUDUDLARIDA IQTISODIY MUTANOSIBLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI VA ULARNING O'ZGARISH TENDENSIYALARI	1320
Murtazayev Isabek Bazarbayevich	
O'ZBEKISTONDA AHOLI TURMUSH DARAJASINI YAXSHILASHNI MOLIVAVIY MANBALARI	1327
Mansurov Mansur Alisherovich, Xolbekova Dilobarxon Rasuljon qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MONETAR SIYOSATNING TRANSMISSIYA MEXANIZMLARI SAMARADORLIGI	1330
Boltayeva Nilufar Shavkat qizi	
HUDUDIIY TURIZM RIVOJLANISHIDA BARQAROR BOSHQARUV STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQUISH	1336
Barakayev Elbekjon Abdulla o'g'li	
O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMINI JORIY ETISH	1343
Yuldashev Kodirjon Mamadjanovich	
ILG'OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDA BOSHQARUV XODIMLARI QOBILIYATLARIDAN FOYDALANISH ORQALI KORXONA SALOHİYATINI YUKSALTIRISH YO'LLARI	1348
Ayubxon Qutbiddinov Bosit o'g'li	
INTEGRATSIYALASHGAN XARAJATLAR TAHLILI: ISHLAB CHIQUARISH VA LOGISTIKA XARAJATLARINING MAHSULOT TANNARXIGA TA'SIRI	1353
Zokirjonov Asadbek Otabek o'g'li, Xashimova Zuhraxon Kahramonovna	
QASHQADARYO VILOYATI SANOATINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ULARNI EKONOMETRIK MODELLAR YORDAMIDA BAHOLASH	1358
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA BOLALAR TA'MINOTIGA OTA-ONALAR TOMONIDAN HAQ TO'LASH VA UNDAN FOYDALANISH TARTIBINING BUXGALTERIYA HISOBI	1361
Ro'ziboyev Oybek Baxromovich	
KICHIK BIZNESNING HUDUDIIY ISH BILAN BANDLIKKA TA'SIRI	1367
Qulmatov Alimjan Abdulloyevich	
INDUSTRIYA 4.0 SHAROITIDA KASBLAR TARKIBI TUZILMASI VA KOMPETENSIYALAR TRANSFORMATSIYASI	1371
Mirzakarimova Muyassarxon Muminovna	
RAQAMLI IDENTIFIKATSIYA (E-ID) TIZIMINING G'AZNACHILIK OPERATSIYALARIDA QO'LLANISH ISTIQBOLLARI	1375
Raximov Shaxzod Maxsudjanovich	
IQTISODIYOTNI RAQAMLI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA AVTOMOBIL SANOATI KORXONALARINING INVESTITION FAOLIYATINI STRATEGIK RIVOJLANTIRISH	1380
Kasimova Nozima Omilovna	
METHODOLOGY FOR ASSESSING THE EFFECTIVE PERFORMANCE OF AN INDUSTRIAL ENTERPRISE IN THE CONTEXT OF INDUSTRY 4.0	1384
Kudaynazarova Dilnaz Koshkarbaevna	
TEACHING PROGRAMMING COLLABORATIVELY THROUGH GOOGLE COLAB AND GITHUB INTEGRATION	1388
Saidova Difuza Ergashovna	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI	1392
Djumayev Zayniddin Axmedovich	



ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА: КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА И КЛЮЧЕВЫЕ ОРИЕНТИРЫ	1397
Киличева Феруза Бешимовна	
ТРАНСФОРМАЦИЯ КОНСТИТУЦИОННЫХ НОРМ О СОБСТВЕННОСТИ И ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СВОБОДЕ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНОГО ГОСУДАРСТВА	1401
Абдуллаева Мавлюда Садыковна	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI INNOVATSION IQTISODIYOTDA QO'LLAB-QUVVATLASH STRATEGIYALARI.....	1407
Mirzaaxmedov Nodirbek Shavkatovich	
KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI TAHLIL QILISH VA MARKETING STRATEGIYASINI TANLASH	1414
Yoqubjonova Dildora Timur qizi	
TURISTIK XIZMATLAR BOZORINING XUSUSIYATLARI VA BRENDLASH IMKONIYATLARI	1420
Yusupova Moxinur Farxod qizi	
TA'LIM TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY AKTIVLARNI BOSHQARISH.....	1428
Meliboyev Ibroxim Mavlon o'g'li	
SOLIQ NAZORATINI TASHKIL ETISHDA XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTONGA TATBIQ ETISH IMKONIYATLARI.....	1432
Kodirov Aqliddin Hakim o'g'li	
AVTOMOBIL SAVDOSIDA ZAMONAVIY MARKETING KONSEPSIYALARINING QO'LLANILISHI	1437
Adamboyev Abror Akrom o'g'li, Akramov T.A.	
CHARM-POYABZAL KORXONALARIDA RESURSLARDAN MUQOBIL FOYDALANISH SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARINI PROGNOZLASH	1443
Otaniyozov Orifjon Otaxonovich	
BANK KAPITALI YETARLILIGI VA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI	1449
Abdusalamov Olimjon Eshmirzayevich	
SIRKULAR IQTISODIYOTDA RESURS TANQISLIGINING OLDINI OLISH MASALALARI	1454
Ismoilova Gulchiroy Tolliboy qizi	
THE IMPACT OF DIGITAL PAYMENT SYSTEMS DEVELOPMENT ON THE BANKING SECTOR: A COMPARATIVE ANALYSIS OF CENTRAL ASIAN COUNTRIES	1459
Aziza Farmonovna Ergasheva, Rustam Olimjonovich Oltinov	
ICHKI AUDIT VA UNING KORXONA NAZORAT TIZIMIDAGI O'RNI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1472
Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGIDA RISK TURLARI VA KELIB CHIQISH OMILLARI	1477
Xamrokulov Sindor Qahramonovich	
O'ZBEKISTONDA TURISTLARGA OVQATLANISH XIZMATLARINI KO'RSATISHNI RIVOJLANTIRISHNING BOSHQARUV MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1483
Maxmadiyeva Charos Xayrullayevna	
TIJORAT BANKLARINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING SAMARALI YO'LLARI.....	1487
Adilov Mirkomil Miralimovich	
BUDJET JARAYONIDA OCHIQLIK VA SHAFFOFLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARINING AMALDAGI HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	1494
Shernayev Akbar Aqmirzayevich	
KICHIK TADBIRKORLIK LOYIHALARINI MOLIVALASHTIRISHDA BANK KREDITLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI	1499
Norqobilova Nargiza Abdigodirovna	
OLIY TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARINING ISHTIROKI VA ULARDA MARKETING FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH	1504
Yuldashov Isomiddin Sidiqovich	
МАКРОЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОПТИМИЗАЦИИ НАЛОГОВЫХ ПОСТУПЛЕНИЙ И ЕЁ ЗНАЧЕНИЕ ДЛЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ.....	1509
Муталова Дилором Махамаджановна, Хакимова Ситора Ильёсжон кизи	



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TELEKOMMUNIKATSIYA XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI VA MEXANIZMLARI.....	1515
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
INNOVATSION FAOLIYATNI RAG‘BATLANTIRISHDA DAVLATNING O‘RNI.....	1518
Saitkamolov Muxammadxo‘ja Sobirxo‘ja o‘g‘li	
SOLIQ MA‘MURIYATCHILIGINING MOHIYATI VA UNING TADBIRKORLIK MUHITIDAGI O‘RNI.....	1521
Xurramov Azizbek Muxiddin o‘g‘li	
DETERMINATION OF SEED DAMAGE IN THE PNEUMATIC TRANSPORT SYSTEM BY CONDUCTING EXPERIMENTS	1527
Boltabayev Bekzod Egamberdiyevich	
GEOTAHLILY YONDASHUV ASOSIDA DEHQON XO‘JALIKLARINING YER BILAN TA‘MINLANGANLIGINI BAHOLASH.....	1531
Axmatov Abutolibxon Ochilxon o‘g‘li	
DAVLAT BUDJETI XARAJATLARINING G‘AZNA IJROSIDA BIG DATA TAHLILIDAN FOYDALANISHNING SAMARASI.....	1535
Atajanov Murodbek Bekberganovich	
РОЛЬ И РАЗВИТИЕ КИБЕРПРАВА В ФИНТЕХ-ПРОЕКТАХ: ПРАВОВЫЕ ВЫЗОВЫ И ПРИОРИТЕТЫ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА	1539
Мирзаев Шерзод Махматкулович	
KAMBAG‘ALLIK VA UNI TADRIJIY-NAZARIY KONSEPSIYALARI.....	1547
Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich	
DAVLAT KORXONALARINI XUSUSIYLASHTIRISH JARAYONIDA QIYMATNI ANIQLASH VA MOLYAVIY BARQARORLIKNI TA‘MINLASH MEXANIZMLARI	1554
Asomidinova Moxigulbonu Oybek qizi	
O‘ZBEKISTONDA IJTIMOYIY HIMOYA TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH VA HUDUDLARDA DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA MOLYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1560
Dovutov Faxriddin Javliyeovich	



O'ZBEKISTONDA IJTIMOY HIMOYA TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH VA HUDUDLARDA DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Dovutov Faxriddin Javliyevich

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. So'nggi yillarda O'zbekiston ijtimoiy davlat tamoyillarini amalda qaror toptirish yo'lida ijtimoiy himoya tizimini izchil isloh qildi. Konstitutsiyada ilk bor "ijtimoiy davlat" tamoyilining mustahkamlanishi aholiga ko'rsatilayotgan yordamning samaradorligini oshirdi. Natijada ijtimoiy yordam hajmi besh baravarga kengayib, ikki milliondan ortiq oilani qamrab oldi. Ushbu maqolada ijtimoiy himoya tizimini raqamlashtirish jarayonlari, xususan "Yagona ijtimoiy reestr", "E-Case" axborot tizimi, "ijtimoiy karta" hamda "Inson markazlari" kabi innovatsion mexanizmlarning moliyaviy barqarorlikka ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, hududiy differensial yondashuv asosida ijtimoiy yordamni moliyalashtirishning zamonaviy mexanizmlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy davlat, ijtimoiy himoya, differensial yondashuv, raqamlashtirish, moliyalashtirish mexanizmlari, mahalla tizimi.

Abstract. In recent years, Uzbekistan has undertaken consistent reforms of its social protection system to strengthen the principles of a social state. The constitutional endorsement of the "social state" principle has enhanced the effectiveness of support provided to the population. As a result, the volume of social assistance has increased fivefold, covering more than two million households. This article analyzes the impact of digitalization on the social protection system, focusing on innovative mechanisms such as the "Unified Social Registry", the "E-Case" information system, the "social card", and the "Human Centers", as well as their role in ensuring financial sustainability. In addition, modern financing mechanisms for social assistance based on a regional differential approach are examined.

Key words: social state, social protection, differential approach, financing mechanisms, digitalization, mahalla system.

Аннотация. В последние годы Узбекистан последовательно реформировал систему социальной защиты в рамках укрепления принципов социального государства. Конституционное закрепление принципа «социального государства» способствовало повышению эффективности социальной поддержки населения. Объёмы помощи увеличены в пять раз и охватили более двух миллионов семей. В статье анализируется влияние цифровизации системы социальной защиты, включая такие инновационные механизмы, как «Единый социальный реестр», информационная система «E-Case», «социальная карта» и «Центры человека», на финансовую стабильность. Также рассматриваются современные механизмы финансирования социальной помощи на основе регионального дифференцированного подхода.

Ключевые слова: социальное государство, социальная защита, дифференцированный подход, механизмы финансирования, цифровизация, система махалли.

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekistonda "ijtimoiy davlat" tamoyilining konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanishi ijtimoiy himoya tizimi islohotlarini yangi bosqichga ko'tardi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada aholining ijtimoiy himoyasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilanishi natijasida manzilli yordamning institutsional bazasi kengaydi, ijtimoiy to'lovlar hajmi besh baravargacha oshirilib, ikki milliondan ortiq oilani qamrab oldi.



Ushbu jarayon, bir tomondan, kambag'allikni qisqartirish hamda ijtimoiy adolat va imkoniyatlar tengligini ta'minlashga xizmat qiluvchi barqaror moliyaviy choralarni talab etadi; ikkinchi tomondan, ijtimoiy xizmatlarning sifat, tezkorlik va shaffoflik ko'rsatkichlarini mezonli tarzda baholash zaruratini yuzaga keltiradi.

Ijtimoiy himoya sohasi boshqaruvini zamonaviylashtirish maqsadida Prezident huzurida Milliy ijtimoiy himoya agentligining tashkil etilishi tizim arxitekturasida tub o'zgarishlarga zamin yaratdi. Agentlikning hududiy bo'linmalari va maxsus markazlari orqali "hudud–tuman–mahalla" vertikalidagi boshqaruv va koordinatsiya mexanizmi kuchaytirildi, idoralararo ma'lumot almashinuvi, nazorat va monitoring funksiyalari yagona yondashuvda birlashtirildi. Shu bilan birga, "Yagona ijtimoiy reestr", "E–Case" va ijtimoiy karta kabi raqamli platformalar ehtiyojmandlikni aniqlash, to'lovlarni tayinlash va yetkazish zanjiridagi tranzaksion xarajatlarni qisqartirish, takroriy to'lovlar ehtimolini kamaytirish hamda targeting (manzillilik) aniqligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bunday "ma'lumotlarga tayangan boshqaruv" (data-driven governance) modeli milliy darajadagi ijtimoiy siyosatni empirik dalillar bilan ta'minlab, siyosiy qarorlar qabul qilishda ilmiy asoslangan yondashuvlarni ustuvor qiladi.

Mazkur maqolada O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini raqamlashtirish va hududlar kesimida differensial yondashuv asosida moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish muammosi kompleks tahlil qilinadi. Birinchidan, raqamli infratuzilma (reestrlar, keys-menejment, ijtimoiy karta)ning moliyaviy barqarorlikka, shaffoflik va samaradorlikka ta'siri o'rganiladi. Ikkinchidan, hududiy notenglik, demografik va ijtimoiy-iqtisodiy omillardan kelib chiqib, resurslarni taqsimlashning differensial modellari (target formulalar, risk-kartalash, indikatorlar to'plami) konseptual jihatdan asoslanadi. Uchinchidan, mahalla institutining "bir darcha" tamoyili asosida ijtimoiy xizmatlar ko'lamini kengaytirishdagi o'rni va institutsional o'zaro ta'siri baholanadi. Tadqiqot natijalari siyosat tavsiyalarini ishlab chiqish, budjetning ijtimoiy yo'naltirilgan sarflarida targetingni kuchaytirish hamda raqamli platformalar asosida monitoring va baholash (M&E) tizimini institutsionallashtirishga qaratilgan amaliy takliflar bilan yakunlanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ijtimoiy davlat konsepsiyasi T. Marshall¹, R. Titmus², A. Esping-Andersen³ kabi klassik olimlar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ular ijtimoiy himoyani davlatning eng muhim funksiyalaridan biri sifatida belgilaydi. Marshall (1950) fuqarolik, siyosiy va ijtimoiy huquqlarni jamiyat barqarorligi uchun bir butun va o'zgarmas tizim sifatida saqlab qolish zarurligini ta'kidlaydi. Esping-Andersen (1990) esa ijtimoiy davlatning skandinav, liberal va kontinental modellarini qiyosiy tahlil qilib, moddiy yordam mexanizmlarining adolat, manzillilik va ijtimoiy inklyuziyaga ta'sirini ilmiy asosda ko'rsatadi. Ushbu nazariy yondashuvlar O'zbekistonda "ijtimoiy davlat" tamoyilining Konstitutsiya darajasida mustahkamlanishi uchun muhim konseptual poydevor bo'lib xizmat qiladi.

So'nggi o'n yillikda Yevropa davlatlari, Janubiy Koreya, Estoniya va Singapurda ijtimoiy xizmatlarni raqamlashtirish davlat boshqaruvi standartining ajralmas qismiga aylangan. OECD (2022) hisobotlariga ko'ra, raqamli reestrlar, avtomatlashtirilgan ehtiyojni baholash tizimlari va real-time ma'lumot almashinuvi ijtimoiy xarajatlar samaradorligini 15–40% ga oshirgan. Estoniyaning "X–Road" idoralararo axborot almashinuvi platformasi, Koreyaning "Social Security Information System" tizimi hamda Singapurning "National Social Registry" modeli ijtimoiy yordamlarni manzilli taqsimlash jarayonida xatolar ulushini 70% ga qisqartirgani ta'kidlanadi. Mazkur xalqaro tajribalar O'zbekistonda "Yagona ijtimoiy reestr" va "E–Case" platformalarini joriy etish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ijtimoiy himoya tizimini raqamlashtirish jarayonlari, hududlar kesimida differensial moliyalashtirish mexanizmlarining samaradorligi hamda mahalla darajasida ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish tajribasi kompleks yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqot uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar davlat organlarining ochiq statistik resurslari, Milliy ijtimoiy himoya agentligi hisobotlari, xalqaro tashkilotlar (ILO, OECD, World Bank)ning tematik sharhlari hamda mavjud normativ-huquqiy hujjatlar tahlili orqali yig'ildi. "Yagona ijtimoiy reestr", "E–Case" va ijtimoiy karta mexanizmlariga oid amaliy ma'lumotlar taqqoslovchi tahlil usuli yordamida baholandi.

Hududiy ijtimoiy–iqtisodiy farqlarni aniqlash jarayonida indikatorlar asosida differensial baholash usuli qo'llanildi. Shuningdek, mahalla darajasida ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha mavjud amaliyotlar kontent tahlili orqali o'rganildi. Olingan ma'lumotlar tizimlashtirilib, islohotlarning institutsional, moliyaviy va texnologik ta'siri integratsiyalashgan tahlil modeli asosida umumlashtirildi.


1 T. Marshall "Citizenship and Social Class", 1950.

2 R. Titmus "Essays on the Welfare State", 1958.

3 A. Esping-Andersen "The Three Worlds of Welfare Capitalism", 1990

TAHLIL VA NATIJALAR

“Ijtimoiy himoya yagona reestri” axborot tizimi idoralararo elektron o‘zaro hamkorlikka tayangan holda kam ta’minlangan oilalarni aniqlash, ularga bolalar nafaqasi va moddiy yordam tayinlash, shuningdek davlat tomonidan ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar va yordamlarni olish uchun murojaat qiluvchilar hamda oluvchilar to‘g‘risida yagona ma’lumotlar bazasini shakllantirishni ta’minlaydigan avtomatlashtirilgan axborot tizimidir. Ushbu tizim ijtimoiy yordamni tezkor, shaffof va aniq mezonlar asosida ko‘rsatishga xizmat qilib, resurslar taqsimotida adolat va samaradorlikning oshishiga zamin yaratadi (1-rasm).



1-rasm. Yagona ijtimoiy reestr idoralararo elektron o‘zaro hamkorlik jarayoni⁴

Elektron hukumat tizimi va “E–Case” moduli orqali ijtimoiy himoya xizmatlarining samaradorligi sezilarli darajada oshirilmoqda. Yangi ishga tushirilgan “E–Case” elektron portali ijtimoiy himoya milliy tizimining muhim komponenti bo‘lib, 14-oktabr 2023–yilda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Aholining ijtimoiy himoya olish huquqlarini ta’minlash hamda davlat ijtimoiy yordami va xizmatlarini ko‘rsatishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 539–son qarori⁵ asosida joriy etilgan. Mazkur portal 29 ta vazirlik va idoradan jami 74 turdagi ma’lumotni real vaqt rejimida yig‘ib, qayta ishlash imkonini yaratadi.

Ushbu tizim mahalla darajasida yordamga muhtoj 12 toifadagi oilalarning holatini yagona elektron bazada yuritish imkonini berdi. Ijtimoiy xodimlar uyma-uy tashrif buyurib, “E–Case” tizimi orqali ehtiyojmand oilalarning turmush sharoitini chuqur o‘rgandi va har bir xonadon bo‘yicha individual yordam rejalari tuzish amaliyotini yo‘lga qo‘ydi.

Ko‘rinib turibdiki, raqamlashtirish ijtimoiy himoya tizimining tezkorlik, shaffoflik va manzillilik darajasini sezilarli oshirib, xizmat ko‘rsatish jarayonlarini yanada samarali va adolatli shaklga keltirmoqda (2-rasm).

⁴ Muallif tomonidan tuzilgan.

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 14.10.2023 yildagi 539-son <https://lex.uz/ru/docs/-6636282?ONDATE=06.08.2025&action=compare>



Ижтимоий нафақа турлари ва миқдорлари

Аввалги тартиб			Янги тартиб			
	1. Икки ёшга тулгунга қадар	Муддати	Миқдори	1. Болалар нафақаси (18 ёшгача)	Муддати	3 ёшгача боласи бор оила учун
	2 ёшга тулгунга қадар	12 ой	484,0 минг сўм	Болалари 3 ёшдан катта бўлган оила учун		
2. 14 ёшгача болалари бўлган оилаларга нафақа:				Битта болали оиллага	12 ой	325 минг сўм
		Муддати	Миқдор	Иккита болали оиллага	12 ой	475 минг сўм
	Битта болали оиллага	6 ой	194,1 минг сўм	Учта болали оиллага	12 ой	575 минг сўм
	Иккита болали оиллага	6 ой	288,7 минг сўм	Тўрт болали оиллага	12 ой	675 минг сўм
	Уч ва ундан ортиқ болали оиллага	6 ой	384,4 минг сўм	(ҳар бир кейинги фарзанд учун +100 минг сўмдан)		
3. Кам таъминланган оилаларга моддий ёрдам:				2. Кам таъминланган оилаларга моддий ёрдам:		
		Муддати	Миқдор		Муддати	Миқдор
	Оила аъзолари сонидан катти назар	6 ой	376,0 минг сўм	Фарзандсиз ёки 18 ёшдан ошган фарзанди бўлган оилалар учун	6 ой	380 минг сўм

2-рasm. Кам та'минланган oilalarga bolalar nafaqasi va moddiy yordam miqdori va yo'nalishlari

Ijtimoiy himoyani raqamlashtirishning yana bir muhim yo'nalishi — ijtimoiy xizmatlar va to'lovlarni "raqamli hamyon"ga o'tkazishdir. 2024–yil yakunida Prezident barcha turdagi hujjat va guvohnomalarni o'rnini bosuvchi yagona "ijtimoiy karta" joriy etilishini ma'lum qildi. Endilikda fuqarolar nafaqa, kompensatsiya va boshqa turdagi ijtimoiy yordam pullarini aynan ushbu elektron karta orqali olishlari, shuningdek, jamoat transportida bepul yurish, elektr–gaz to'lovlari bo'yicha kompensatsiyalarni qabul qilish va ta'lim xarajatlari uchun ajratiladigan yordamlarni rasmiylashtirish imkoniyatiga ega bo'lادilar.

Mazkur tizim 1–iyul 2025–yilgacha Toshkent shahri va Yangiyo'l tumanida sinov tariqasida yo'lga qo'yilishi, yil oxiriga qadar esa butun mamlakat bo'ylab joriy etilishi rejalashtirilgan. Shu tariqa, ijtimoiy himoya oluvchilarga oid barcha ma'lumotlarning elektron platformaga ko'chirilishi va jarayonlarning to'liq raqamli hujjat aylanishi orqali boshqarilishi byurokratik to'siqlarning sezilarli qisqarishiga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda ijtimoiy karta tajriba–sinov bosqichida Toshkent shahri va Toshkent viloyatining Yangiyo'l tumanida joriy etilgan. 2024–yil dekabr oyidan boshlab ijtimoiy karta yangi tayinlangan 9 turdagi ijtimoiy to'lovlarni oluvchi shaxslarga taqdim etilmoqda. Ushbu shaxslarga kartalar bepul beriladi va dastlab ular to'lov vositasi (bank kartasi) funksiyasini bajaradi (1-jadval).

1-jadval. Tajriba-sinov bosqichida Toshkent shahri va Toshkent viloyatining Yangiyo'l tumanida ijtimoiy karta tomonidan amalga oshirilayotgan xizmatlar

2024 yil 1 dekabrden boshlab quyidagi to'lovlar ijtimoiy karta orqali to'lab berilmoqda.	2025 yil 1 apreldan boshlab yana qo'shimcha 2 turdagi ijtimoiy to'lovlar ijtimoiy karta orqali to'lab beriladi.
1. Kam ta'minlangan oilalarga bolalar nafaqasi 2. Kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam 3. Yoshga doir nafaqa 4. Nogironlik nafaqasi 5. Yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslar uchun har oylik moddiy yordam 6. Nogironligi bo'lgan 18 yoshgacha bolalarga nogironlik nafaqalari 7. Nogironligi bo'lgan bolalarni parvarishlayotgan onalar uchun nafaqa 8. Protez-ortopediya buyumlari va reabilitatsiya qilishning texnik vositalari xaridi uchun vaucher Boquvchisini yo'qotganlik nafaqasi	1. Homiladorlik va tug'ish nafaqasi "Saxovat va ko'mak", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" jamg'armalari hisobidan to'lanadigan bir martalik moddiy yordamlar



Ijtimoiy himoya tizimi avvalgi manzilsiz va umumiy yondashuvdan voz kechib, har bir muhtoj fuqaro va oilaga individual yondashuv tamoyiliga bosqichma-bosqich o'tmoqda. Bu borada 2019–yilda joriy etilgan “Temir daftari” tizimi muhim ahamiyat kasb etdi. Uyma-uy yurib aholi muammolarini o'rganish natijasida shakllantirilgan ushbu daftar respublikadagi eng nochor oilalarni ro'yxatga olib, ularga manzilli yordam ko'rsatishning dastlabki institutsional platformasini yaratdi.

Dastlab Xalq qabulxonalari va sektorlar tomonidan 6,1 milliondan ziyod xonadon o'rganilgan, 935 mingdan ortiq ijtimoiy muammo aniqlangan va shu asosda ehtiyojmandlar ro'yxati tuzilgan. Keyinchalik “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” tizimlarining joriy etilishi manzilli yordamni xotin-qizlar va yoshlar kabi ijtimoiy guruhlar kesimida tashkil etish imkonini berdi. Mahallalarda tuzilgan ushbu ro'yxatlar orqali og'ir ahvolda qolgan, ish topishda yoki jamiyatda o'z o'rnini topishda qiynalayotgan xotin-qizlar hamda ishsiz yoshlar alohida nazoratga olinib, ularning muammolarini hal etish uchun individual reja asosida ishlar amalga oshirilmoqda.

Maxsus ro'yxatlar doirasida amalga oshirilgan dasturlar minglab fuqarolarga aniq ko'mak berish imkonini yaratmoqda. Masalan, “Ayollar daftari” misolida 2020–2022–yillar davomida ehtiyojmand xotin-qizlarga ko'rsatilgan amaliy yordamning ko'lami bosqichma-bosqich kengaydi: birinchi bosqichda 430 mingdan ortiq, ikkinchi bosqichda 450 mingdan ziyod, uchinchi bosqichda esa qariyb 642 ming nafar ayolga turli ko'rinishdagi yordam va imtiyozlar yetkazib berildi⁶. Xususan, aholining bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlikka jalb etish, sog'lig'ini tiklash, uy-joy va kommunal sharoitini yaxshilash bo'yicha aniq chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. “Yoshlar daftari” doirasida ishsiz yoki ijtimoiy faolligi past yoshlar bilan tizimli ishlash yo'lga qo'yilib, ularni kasb-hunarga o'rgatish, ish bilan ta'minlash, ijara haqini qoplash, ta'lim olishga ko'maklashish kabi qator imtiyozlar taqdim etilmoqda. Masalan, “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarga bepul o'quv kurslari, kontrakt to'lovlari qisman qoplash hamda uy-joy ijarasi uchun subsidiya ajratish kabi yordamlar ko'rsatilmoqda. Bunday manzilli yondashuv natijasida ko'plab oilalar qashshoqlikdan chiqib, mustaqil daromad topish darajasiga erishmoqda.

Mahalla instituti O'zbekistonda azaldan ijtimoiy himoya va jamoaviy birdamlikning tayanch bo'g'ini bo'lib kelgan. Bugungi islohotlar jarayonida mahallaning ijtimoiy himoyadagi o'ri yanada mustahkamlanib, u davlatning bevosita quyi pog'onadagi ijtimoiy xizmatlar tizimi sifatida qayta shakllantirilmoqda. 2023–yilda hukumat qarori bilan har bir tumanda maxsus “Inson” ijtimoiy xizmat markazlari tashkil etildi va ular orqali mahalla darajasida davlat kafolatlagan ijtimoiy yordam va xizmatlarni yetkazish tizimi yo'lga qo'yildi. Respublikadagi 208 ta tuman va shaharning barchasida tashkil etilgan mazkur markazlarda ijtimoiy xodimlar va ularning yordamchilari faoliyat yuritmoqda. “Hudud–tuman–mahalla” tamoyili asosida har bir mahallaga alohida ijtimoiy xodim birlashtirilib, ularning faoliyati hududdagi ehtiyojmandlar soni va ehtiyojlar tarkibidan kelib chiqib yo'naltirilmoqda.

Ijtimoiy xodimlar malakasini oshirish maqsadida onlayn trening platformalari ishga tushirilgan bo'lib, BMTning UNICEF, UNFPA kabi tuzilmalari hamda xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda maxsus o'quv dasturlari joriy etilgan. Bularning barchasi mahalla darajasida professional ijtimoiy xizmat ko'rsatish, muammolarni erta aniqlash va ularni samarali hal etish tizimini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

“Inson” ijtimoiy xizmat markazlari mahallalardagi ehtiyojmand aholi bilan manzilli ishlashning yangi bo'g'ini hisoblanadi. 15-oktabr 2023–yildan boshlab 28 ta tuman va shaharda sinov tariqasida joriy etilgan mazkur tizim doirasida ijtimoiy xodimlar yolg'iz keksalar hamda nogironligi bo'lgan fuqarolarni ro'yxatga olib, ularning har biri uchun individual ijtimoiy xizmatlar rejalarini ishlab chiqish amaliyotini yo'lga qo'ydi. Xususan, nogironligi bo'lgan yoki yoshi ulug' shaxslarning qaysi turdagi yordamga muhtojligi (uyda parvarish, tibbiy reabilitatsiya, psixologik ko'mak va boshqalar) aniqlanib, zarur xizmatlar “bir darcha” tamoyili asosida mahalla darajasida ko'rsatilmoqda.

2024–yildan boshlab mazkur tizim butun mamlakat bo'ylab kengaytirildi. Endilikda har bir mahalladagi ijtimoiy xodimlar ehtiyojmand aholining kundalik ehtiyojlarini kuzatib borish, ularni tarmoqlar kesimida (sog'liqni saqlash, bandlik, ta'lim va boshqalar) tegishli idoralarga yo'naltirish hamda jarayonning samarali hal etilishini nazorat qilish vazifasini bajaradi. Mahalla ko'magiga muhtoj nogiron va keksalarga har oy eng zarur iste'mol xarajatlari miqdorida nafaqa tayinlash, yiliga bir marta bepul qatnov (temiryo'l yoki avtobus) imtiyozlarini taqdim etish hamda poytaxt va viloyat markazlaridagi ijtimoiy reabilitatsiya markazlarida qisqa muddatli davolanish va dam olish imkoniyatlari yaratildi. Bu esa mahalla darajasida nafaqat moddiy qo'llab-quvvatlash, balki ijtimoiy xizmatlar — uyda parvarish, reabilitatsiya, psixologik maslahat, yuridik yordam va boshqa xizmatlar —ni qamrab olishni ta'minlamoqda.

Mahalla fuqarolar yig'ini endilikda manzilli yordamni adolatli taqsimlash bo'yicha ham mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan. Ijtimoiy nafaqalar va subsidiyalarni ajratish jarayonida mahalla raisi va faollarining vazifasi — zarur mezonlarga javob bermagan holda yordam olayotgan, ammo haqiqatan ehtiyojmand bo'lmagan shaxslarni aniqlash va adolatsiz to'lovlarning oldini olish. Shu bilan birga, kambag'al oilalarga birlashtirilgan hokim yordamchilari va boshqa mutasaddi rahbarlar faoliyati ustidan ham mahalla va sektor darajasida jamoatchilik

6 O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi.



nazorati yo'lga qo'yilgan. O'z vazifasini to'liq bajarmagan mansabdorlar bo'yicha intizomiy choralar ko'rilishi tizimning samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda⁷.

Mahalla infratuzilmasi negizida ijtimoiy xizmatlarni kengaytirish jarayonlari izchil davom etmoqda. Hozirda 100 dan ortiq turdagi ijtimoiy xizmatlar bevosita mahalla binolarida yoki ko'chma guruhlar orqali aholiga yetkazilmoqda. Xususan, nogironligi bo'lgan shaxslar, xotin-qizlar, yolg'iz keksalar va boshqa e'tiborga muhtoj qatlamlarga oid ariza va murojaatlar mahallaning o'zida qabul qilinib, tegishli idoralar bilan elektron tizim orqali ko'rib chiqilmoqda va hal etilmoqda.

“Mahallabay” va “xonadonbay” (har bir xonadon kesimida) ishlash uslubi tufayli endi qog'ozdagi reja va statistik ko'rsatkichlardan ko'ra, har bir oilaning real ehtiyojlari o'rganilib, zudlik bilan echim topish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Mahalla kengashi esa ko'rsatilayotgan har bir yordam chorasini mas'ul idoralar tomonidan o'z vaqtida va sifatli bajarilishini, eng muhimi — mahallada qabul qilinadigan qarorlarning ochiq va adolatli bo'lishini muntazam nazorat qilmoqda.

Boshqacha aytganda, mahalla endilikda faqatgina “fuqaro va davlat o'rtasidagi ko'pri” emas, balki ijtimoiy himoya xizmatlarini uyushqoqlik bilan tashkil etuvchi, aholining real ehtiyojlariga tezkor javob beruvchi innovatsion institutga aylanib bormoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini raqamlashtirish va hududlar kesimida targetlangan yordamni tashkil etish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar institutsional, texnologik va moliyaviy bloklar o'rtasida uzviy bog'liqlikni ta'minlab, tizim rivojining yangi bosqichiga zamin yaratdi. Yagona ijtimoiy reestrning joriy etilishi ma'lumotlar boshqaruvining yaxlit konturini shakllantirib, ariza berish–verifikatsiya–tayinlash–to'lov–monitoring bosqichlaridagi tranzaksiyon xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirdi hamda qaror qabul qilish jarayonida real vaqt rejimidagi dalillarga tayanish imkoniyatini kengaytirdi. Ijtimoiy karta va keys-menejment yechimlari, jumladan xonadon kesimida ehtiyoj profillash va foydalanuvchi yo'lini loyihalash amaliyotlari manzillilik darajasini oshirib, xizmatlar portfelini fuqarolar nuqtai nazaridan yanada moslashuvchan, oson boshqariladigan va shaffof tizimga aylantirdi.

Kambag'allikni qisqartirish strategiyasi doirasida “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” kabi ro'yxatlarning institutsional tarzda mahalla tizimiga integratsiya qilinishi ijtimoiy intervensiyalar arxitekturasini “tezkor va manzilli javob” modeliga yaqinlashtirdi. Ushbu yondashuv bir vaqtning o'zida ijtimoiy zaif qatlamlarning daromad topish salohiyatini tiklash, ularni bandlikka jalb etish va inson kapitaliga investitsiyalarni kengaytirishga xizmat qilmoqda, shuningdek to'lovlarining takrorlanishi yoki noto'g'ri manzillanishi xavfini kamaytirib, budget mablag'larining samaradorligi va hisobdorligini oshirmoqda. Mahalla institutining “bir darcha” tamoyili orqali ariza, maslahat, yo'naltirish va rehabilitatsiya xizmatlarining birlashtirilishi esa davlat–fuqaro o'zaro munosabatlarini byurokratik to'siqlarsiz, inklyuziv va tezkor formatda qayta kalibrovka qilishga yordam berdi.

Tizimiy o'zgarishlarning barqarorligini ta'minlash uchun esa bir qator metodologik va amaliy shartlarning bajarilishi muhimdir. Avvalo, ma'lumotlar sifatini ta'minlash, ya'ni idoralararo standartlashtirilgan formatlar, metama'lumotlar siyosati va ma'lumot tuzilmasidagi validatsiya qoidalariga qat'iy rioya etish raqamli yechimlarning ishonchliligi va barqarorligini belgilaydi. Shuningdek, hududlar kesimida qo'llaniladigan differensial moliyalashtirish formulalarini demografik, ijtimoiy–iqtisodiy va infratuzilmaviy indikatorlar asosida muntazam ravishda kalibrovka qilish, resurs taqsimoti samaradorligini baholashda qiyosiy va kvazi-eksperimental usullardan (DiD, PSM, RDD) tizimli foydalanish talab etiladi. Bundan tashqari, mahalladagi ijtimoiy xodimlar salohiyatini muntazam rivojlantirish, xizmatlarning etik standartlari va foydalanuvchi huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini — apellyatsiya tartibi, ombudsman institutlari va ommaviy hisobotdorlikni — mustahkamlash zarurdir.

Islohotlarning keyingi bosqichida raqamli arxitekturani mikro servisli va modulli yondashuv asosida yanada chuqurlashtirish, identifikatsiya va to'lov ta'minot zanjirlari o'rtasidagi integratsiyani kengaytirish, ijtimoiy karta funksionalligini xizmat va to'lov turlari kesimida boyitib, foydalanuvchi yo'lini (user journey) soddalashtirish, hududiy tengsizliklarni hisobga olgan holda resurs taqsimoti formulalarini qayta kalibrovka qilish, natijadorlikka bog'langan moliyalashtirish elementlarini joriy etish hamda monitoring va baholash (M&E) tizimini normativ darajada institutsionallashtirib, ochiq ma'lumotlar orqali jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Ushbu chora-tadbirlar ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini oshirib, aholining eng zaif qatlamlari uchun xizmatlar sifatini yaxshilaydi hamda uzoq muddatli istiqbolda kambag'allik xavfini pasaytirishga xizmat qiladi.

Natija o'laroq, O'zbekiston modeli — konstitutsiyaviy “ijtimoiy davlat” tamoyiliga asoslangan, raqamli platformalar, differensial moliyalashtirish formulalari va mahalla markazli xizmatlarni uyg'unlashtirgan gibriddir.

⁷ 2025 yel 13 yil 2025 dekabrda sanoatni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha davlat rahbari Ishlar natijalarni muhokama qildi va 2025 yilda yel universiteti rasmiy sifatida yigilish video selektorining ishga tushirilishini muhokama qildi.



arxitektura — ijtimoiy siyosatning dalillarga tayangan, tezkor va hisobdor formatiga transformatsiyalanmoqda. Bunday transformatsiya ijtimoiy adolat va inklyuziyani mustahkamlash, inson kapitalini rivojlantirish hamda makroiqtisodiy barqarorlikni yuksaltirish jihatidan strategik ahamiyatga ega bo'lib, jamiyat farovonligi va hayot sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy himoya tizimini yanada takomillashtirish uchun, avvalo, "Yagona ijtimoiy reestr"dagi ma'lumotlar sifatini muntazam yangilab borish va idoralararo integratsiyani kuchaytirish lozim. Shuningdek, hududlar kesimida ehtiyoj darajasini aniq baholash maqsadida demografik va ijtimoiy-iqtisodiy indikatorlarga asoslangan differensial moliyalashtirish formulalarini keng miqyosda joriy etish, mahalladagi ijtimoiy xodimlar malakasini oshirish bo'yicha uzluksiz o'quv dasturlarini kengaytirish, ijtimoiy kartaning funksiyalarini barcha xizmat turlariga tatbiq etish hamda uni transport, ta'lim, sog'liqni saqlash tizimlari bilan to'liq integratsiya qilish samaradorlikni yanada oshiradi. Monitoring va baholash tizimini mustahkamlash esa resurslarning ochiq va hisobdor boshqarilishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh. M. "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar to'g'risidagi ma'ruzalar to'plami. — Toshkent: O'zbekiston, 2024. — 215 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrir). — Toshkent: Adolat, 2023. — 98 b.
3. Saidova N. Sh. O'zbekistonda ijtimoiy siyosatning iqtisodiy samaradorligi. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2022. — 176 b.
4. Ahmadjonov B. B. Mahalla tizimida aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning institutsional asoslari. — Toshkent: Akademnashr, 2023. — 204 b.
5. Barr, N. The Economics of the Welfare State. — Oxford University Press, 2020. — 424 p.
6. Esping-Andersen, G. The Three Worlds of Welfare Capitalism. — Princeton University Press, 1990. — 260 p.
7. Bonoli, G. The Origins of Active Social Policy: Labour Market and Childcare Reforms in a Comparative Perspective. — Oxford: Oxford University Press, 2013. — 272 p.
8. International Labour Organization (ILO). World Social Protection Report 2021–2023: Social Protection at the Crossroads – In Pursuit of a Better Future. — Geneva: ILO, 2022. — 345 p.
9. OECD. Digital Government Index 2023: Measuring Digital Transformation in the Public Sector. — Paris: OECD Publishing, 2023. — 190 p.
10. World Bank. Strengthening Social Protection Systems in Central Asia: Toward Adaptive and Digital Solutions. — Washington, D.C.: World Bank, 2023. — 112 p.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
